

**HUDUDLARDAGI SODIR BO‘LAYOTGAN YO‘L TRANSPORT
HODISALARINI ILMIY O‘RGANISH (TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT
TUMANI MISOLIDA)**

podpolkovnik Tursunov Suxrob Baxritdinovich

*Ichki ishlar vazirligi Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati
Dasturiy ta‘minot markazi boshlig‘i*

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Toshkent viloyati Toshkent tumani misolida yo‘l-transport hodisalarining holati, ularning kelib chiqish sabablari, hududiy xususiyatlari hamda xavfli yo‘l uchastkalari ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, yo‘l harakati xavfsizligini yaxshilash bo‘yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilib olingan.

Kalit so‘zlar: yo‘l, transport, yo‘l harakati xavfsizligi, yo‘l-transport hodisa, tirbandlik, transport oqimi, profilaktik chora-tadbir.

Аннотация: Данная научная статья представляет собой научный анализ ситуации с дорожно-транспортными происшествиями, их причинами, территориальными особенностями и опасными участками дорог на примере Ташкентского района Ташкентской области. Она также направлена на разработку практических предложений и рекомендаций по повышению безопасности дорожного движения.

Ключевые слова: дорога, транспорт, безопасность дорожного движения, дорожно-транспортное происшествие, движение транспорта, транспортный поток, профилактические меры.

Abstract: This research article presents a scientific analysis of the road accident situation, their causes, territorial characteristics, and hazardous road sections, using the Tashkent district of the Tashkent region as an example. It also aims to develop practical proposals and recommendations for improving road safety.

Key words: road, transport, road safety, road traffic accident, traffic, traffic flow, preventive measures.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda transport infratuzilmasini rivojlantirish, avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish va transport vositalari sonining keskin ortishi yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash masalasini dolzarb muammolar qatoriga olib chiqmoqda. Yo‘l-transport hodisalari nafaqat inson hayoti va salomatligiga jiddiy xavf tug‘diradi, balki iqtisodiy va ijtimoiy yo‘qotishlarga ham sabab bo‘ladi. Shu bois hududlarda sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodisalarini ilmiy asosda tahlil qilish, ularning kelib chiqish sabablari va omillarini o‘rganish, xavfli hududlarni aniqlash hamda samarali profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.


Toshkent viloyati, xususan Toshkent tumani transport oqimi yuqori bo‘lgan hududlardan biri hisoblanadi. Bu yerda shahar va qishloq hududlarini bog‘lovchi asosiy avtomobil yo‘llari joylashgan bo‘lib, kundalik transport harakati zichligi yuqori darajani tashkil etadi. Bu esa yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashda qo‘shimcha talab va mas‘uliyatni yuzaga keltiradi.

Ushbu tadqiqot natijalari hududlarda yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish, profilaktik chora-tadbirlarni samarali tashkil etish hamda transport boshqaruvi sohasida qaror qabul qilish jarayonlarida ilmiy asos sifatida xizmat qilishi mumkin.

Tirbandliklar tahlili yuzasidan,

1) Keles yo‘li va Ravnaq ko‘chalari kesishmasidagi chorrahada haftaning dushanba-shanba kunlarida ertalabki soat 07:30-09:30 hamda 17:00-19:30 oralig‘ida 8 balli tirbandliklar yuzaga kelmoqda. Keles yo‘li ko‘chasi bo‘ylab tirbandlikning o‘rtacha uzunligi 2 km gacha cho‘zilmoqda.

Ertalabki tirbandlik Keles yo‘li ko‘chasi bo‘ylab Keles shahridan Toshkent shahriga chiqish yo‘nalishida hosil bo‘ladi, kechki tirbandlik Toshkent shahridan tumanga kirish yo‘nalishida hosil bo‘ladi (1-rasm). Transport oqimining jadalligi ertalabki tirbandlikda 2580 avt/soat, kechki tirbandlikda 2450 avt/soatni tashkil qilmoqda.



1-rasm. Ertalabki tirbandlik Keles yo‘li ko‘chasi bo‘ylab Keles shahridan Toshkent shahriga chiqish yo‘nalishi

Taklif: Keles yo‘li ko‘chasi 9-maktab qarshisiga piyodalar uchun mo‘ljallangan mavjud svetofozni tugmacha yordamida boshqariladigan konstruksiyaga o‘zgartirish.

Keles yo‘li ko‘chasini ko‘prigi ostida 2 ta qayrilib olish joyi mavjud bo‘lib, ularning ikkisi xam tuman markazidan ko‘prik ostiga borib qayrilib olishga mo‘ljallangan. Keles yo‘li ko‘chasi Masalboy xududi tomondan kelishga ko‘prik ostida qayrilib olish joyi mavjud emas. Yuqoridagi 2 ta bir yo‘nalishdagi qayrilib olish joyining bittasini qarama-qarshi yo‘nalishga o‘zgartirish.

2) Chimkent yo‘li, TXAY va A.Temur shox ko‘chalari kesishmasidagi aylanma harakat chorrahada haftaning dushanba-shanba kunlarida ertalabki soat 07:00-10:30 hamda 17:00-20:30 oralig‘ida 8 balli tirbandliklar yuzaga kelmoqda.

Ertalabki tirbandlikda Chimkent yo‘li ko‘chasining Toshkent tumanidan TXAY ko‘chasiga chiqish qismida tirbandlikning o‘rtacha uzunligi 2,5-3 km gacha cho‘zilmoqda. Kechki tirbandlik Toshkent shahar A.Temur shox ko‘chasidan tumanga kirish yo‘nalishida hosil bo‘lmoqda.



YPX maskanidan G'ishtko'prik bojxona posti yo'nalishi bo'yicha 500-700 m masofada svetofor bo'lganligi sababli tirbandlik yana davom etmoqda. Transport vositalarining oqimi jadalligi ertalabki tirbandlikda 2800 avt/soat, kechki tirbandlikda 2500 avt/soatni tashkil qilmoqda.

Taklif: Aylanma harakatlanishli chorrahada transport vositalarining oqimi yuqoriligi, kunning tig'iz vaqtlarida tirbandliklarning oldini olish maqsadida Chimkent yo'li va A.Temur shox ko'chalarini birlashtiruvchi, 4 ta harakatlanish tasmasiga ega zamonaviy avtomobil yo'l ko'prigini qurish taklif etiladi.

3) Shifobaxsh suvlar, TXAY va Farobiy ko'chalari kesishmasidagi chorrahada haftaning dushanba-shanba kunlarida ertalabki soat 07:00-10:30 hamda 17:00-20:30 oralig'ida 8 balli tirbandliklar yuzaga kelmoqda.

Ertalabki tirbandlik Shifobaxsh suvlar ko'chasining Toshkent tumanidan TXAY ko'chasiga chiqish qismida tirbandlikning o'rtacha uzunligi 2-2,5 km gacha cho'zilmoqda (2-rasm). Kechki tirbandlik Toshkent shahar Farobiy ko'chasidan Toshkent tumani Shifobaxsh suvlar ko'chasiga kirish yo'nalishida hosil bo'ladi.



2-rasm. Shifobaxsh suvlar ko'chasining Toshkent tumanidan TXAY ko'chasiga chiqish qismida tirbandlik

Transport oqimining jadalligi ertalabki tirbandlikda 2200 avt/soat, kechki tirbandlikda 2300 avt/soatni tashkil qilmoqda.

Taklif: Shifobaxsh suvlar va TXAY ko'chalari kesishmasidagi chorrahada transport vositalarining oqimi yuqoriligi uchun Shifobaxsh suvlar va Farobiy ko'chalarini birlashtiruvchi, 4 ta harakatlanish tasmasiga ega zamonaviy avtomobil yo'l ko'prigini qurish taklif etiladi.

4) Shifobaxsh suvlar va Keles shox ko'chalari chorrahasidan Shifobaxsh suvlar va Xurmozor ko'chalari chorrahasigacha haftaning dushanba-yakshanba kunlarida ertalabki soat 07:00-12:30 hamda 17:00-21:00 oralig'ida 7 balli tirbandliklar yuzaga kelmoqda.

Yuqoridagi ikkita chorraha orasidagi tirbandlik 1 km ni tashkil etmoqda. Bunga sabab, ushbu yo‘lda jome masjidi uchun transport svetofori o‘rnatilgan. Piyoda bo‘lmaganda taqiqlovchi ishora yonib turishi transport vositalarining tirbandligini keltirib chiqarmoqda. Transport oqimining jadalligi ertalabki va kechki tirbandlikda 1000-1200 avt/soatni tashkil qilmoqda.

Taklif: Shifobaxsh suvlar va Keles shox ko‘chalari chorrahasidan Shifobaxsh suvlar va Xurmozor ko‘chalari chorrahasigacha 1 km lik yo‘lda tirbandliklarni oldini olish maqsadida jome masjid oldiga o‘rnatilgan transport svetoforini tugmacha yordamida boshqariladigan konstruksiyaga o‘zgartirish taklif etiladi.

2. Jamoat transporti xizmatlarining samaradorligi va ular bilan bog‘liq muammolar (umumiy soni, tumandagi marshrutlar, intervali, turlari (metro, avtobus, tezyurar taksi marshrutlari (Gazel va boshqalar), aholi o‘rtasida intervyu (ularni qiynayotgan muammolar), haydovchilar bilan intervyu), jamoat transporti zapravkasi bilan bog‘liq masalalari.

Toshkent tumani bo‘yicha “Toshshahartransxizmat” AJning 8-avtobus saroyiga qarashli:

- **42**-sonli avtobus (Mercedes Benz) “Chorsu savdo markazi-Kensay MFY” marshruti bo‘yicha:

- **169**-sonli avtobus (Mercedes Benz) “Shaxriston ko‘chasi-G‘ishtko‘prik MFY” marshruti bo‘yicha;

- **138**-sonli avtobus (LE-60) “Beruniy metrosi-Bunyodkor MFY” marshruti bo‘yicha;

- **65**-sonli avtobus (Mercedes Benz) “Paxtakor metrosi-Soxibkor MFY” marshruti bo‘yicha;

Shuningdek, 18-avtobus saroyiga qarashli **120**-sonli avtobus (MAN) “Chorsu metrosi-Guliston mahallasi” marshruti bo‘yicha harakati yo‘lga qo‘yilgan.

- **42**-sonli avtobus haftaning ish kunlari bir kunda 10 ta;

- **169**-sonli avtobus 8 ta;

- **138**-sonli avtobus 3 ta;

- **65**-sonli avtobus 8 ta;

- **120**-sonli avtobus 11 ta yo‘nalishga chiqadi.

Yo‘nalishga chiqadigan avtobuslar ma‘naviy eskirgan. Qishki mavsumda yo‘lovchilar tomonidan ushbu avtobuslarga nisbatan turli e‘tirozlar bildirilishi mumkin.

Shuningdek, tumandagi xususiy avtokorxonalarining harakatlanish yo‘nalishlari o‘rganilib quyidagilar aniqlandi:

Tumanda yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanuvchi xususiy avtokorxona ro‘yhati:

1. Keles Renesans M.Ch.J.

2. Xikmattrans M.Ch.J.

3. Metrologiyatrans M.Ch.J.

4. Ravnaqtrans lyuks M.Ch.J.

5. Passtrans M.Ch.J.

6. Bentli elektrobastrans M.Ch.J.

1. “Keles Renesans” M.Ch.J. korxonasi faoliyati o‘rganilganda quyidagilar aniqlandi:

Korxonaga tegishli bo‘lgan transport vositalari rusumi va soni:

- 92 ta “Isuzu” rusumli avtobus mavjud bo‘lib, 2013-2016 yillar oralig‘ida ishlab chiqarilgan va barcha transport vositalari texnik soz holatda;

Harakat yo‘nalishlari:

- 481 - sonli yo‘nalish: Kultepa- Chilonzor buyum bozori:

yo‘nalishda harakatlanadigan transport vositalari soni – 9 ta;

yo‘lovchi sig‘imi – 40 nafar;

transport vositalari harakatlanish oralig‘i – 10 daqiqa;

bir kunda bitta transport vositasining marshrut yo‘nalishi bo‘yicha borib qaytishi – 6 marotaba;

bir kunda bitta transport vositasi yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 480 nafar yo‘lovchi;

bir kunda yo‘nalishdagi barcha (9 ta) transport vositalar tomonidan o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 4320 nafar yo‘lovchi.

- 467 - sonli yo‘nalish: Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti – Chorsu bozori:

yo‘nalishda harakatlanadigan transport vositalari soni - 11 ta;

yo‘lovchi sig‘imi – 40 nafar;

transport vositalari harakatlanish oralig‘i – 8-10 daqiqa;

bir kunda bitta transport vositasining marshrut yo‘nalishi bo‘yicha borib qaytishi – 8 marotaba;

bir kunda bitta transport vositasi yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 640 nafar yo‘lovchi;

bir kunda yo‘nalishdagi barcha (11 ta) transport vositalar tomonidan o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 7040 nafar yo‘lovchi.

- 468 - sonli yo‘nalish: Toshkent tumani sil kasalliklari shifoxonasi (Sanatoriya) – Chorsu bozori:

yo‘nalishda harakatlanadigan transport vositalari soni – 9 ta;

yo‘lovchi sig‘imi – 40 nafar;

transport vositalari harakatlanish oralig‘i – 10-15 daqiqa;

bir kunda bitta transport vositasining marshrut yo‘nalishi bo‘yicha borib qaytishi – 7 marotaba;

bir kunda bitta transport vositasi yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 560 nafar yo‘lovchi;

bir kunda yo‘nalishdagi barcha (9 ta) transport vositalar tomonidan o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 5040 nafar yo‘lovchi.

- 472 - sonli yo‘nalish: Qushqo‘ndi m.f.y. – Chorsu bozori:

yo‘nalishda harakatlanadigan transport vositalari soni - 14 ta;

yo‘lovchi sig‘imi – 40 nafar;

transport vositalari harakatlanish oralig‘i – 6-8 daqiqa;

bir kunda bitta transport vositasining marshrut yo‘nalishi bo‘yicha borib qaytishi – 7 marotaba;

bir kunda bitta transport vositasi yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 560 nafar yo‘lovchi;

bir kunda yo‘nalishdagi barcha (14 ta) transport vositalar tomonidan o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 7840 nafar yo‘lovchi.

- 473 - sonli yo‘nalish: Ittofoq m.f.y. – Chorsu bozori:

yo‘nalishda harakatlanadigan transport vositalari soni - 13 ta;

yo‘lovchi sig‘imi – 40 nafar;

transport vositalari harakatlanish oralig‘i – 8-10 daqiqa;

bir kunda bitta transport vositasining marshrut yo‘nalishi bo‘yicha borib qaytishi – 6 marotaba;

bir kunda bitta transport vositasi yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 480 nafar yo‘lovchi;

bir kunda yo‘nalishdagi barcha (13 ta) transport vositalar tomonidan o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 6240 nafar yo‘lovchi.

- 560 - sonli yo‘nalish: Qushqo‘ndi m.f.y. – Chilonzor buyum bozori:

yo‘nalishda harakatlanadigan transport vositalari soni - 9 ta;

yo‘lovchi sig‘imi – 40 nafar;

transport vositalari harakatlanish oralig‘i – 10-15 daqiqa;

bir kunda bitta transport vositasining marshrut yo‘nalishi bo‘yicha borib qaytishi – 6 marotaba;

bir kunda bitta transport vositasi yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 480 nafar yo‘lovchi;

bir kunda yo‘nalishdagi barcha (9 ta) transport vositalar tomonidan o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 4320 nafar yo‘lovchi.

2. “Xikmattrans” M.Ch.J. korxonasi faoliyati o‘rganilganda quyidagilar aniqlandi:

Korxonaga tegishli bo‘lgan transport vositalari rusumi va soni:

- 15 ta “Gazel” rusumli mikro avtobus mavjud bo‘lib, 2023-2024 yillar oralig‘ida ishlab chiqarilgan va barcha transport vositalari texnik soz holatda;

Harakat yo‘nalishi:

448 - sonli yo‘nalish: Keles – Chilonzor buyum bozori:

yo‘nalishda harakatlanadigan transport vositalari soni - 15 ta;

yo‘lovchi sig‘imi – 15 nafar;

transport vositalari harakatlanish oralig‘i – 10-15 daqiqa;

bir kunda bitta transport vositasining marshrut yo‘nalishi bo‘yicha borib qaytishi – 6 marotaba;

bir kunda bitta transport vositasi yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 180 nafar yo‘lovchi;

bir kunda yo‘nalishdagi barcha (15 ta) transport vositalar tomonidan o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 2700 nafar yo‘lovchi.

3. “Metrologiyatrans” M.Ch.J. korxonasi faoliyati o‘rganilganda quyidagilar aniqlandi:

Korxonaga tegishli bo‘lgan transport vositalari rusumi va soni:

- 10 ta “Gazel” rusumli mikro avtobus mavjud bo‘lib, 2013-2023 yillar oralig‘ida ishlab chiqarilgan va barcha transport vositalari texnik soz holatda;

Harakat yo‘nalishi:

476 - sonli yo‘nalish: Ko‘ksaroy m.f.y. – Beruniy metro bekati:

yo‘nalishda harakatlanadigan transport vositalari soni - 10 ta;

yo‘lovchi sig‘imi – 15 nafar;

transport vositalari harakatlanish oralig‘i – 10-15 daqiqa;

bir kunda bitta transport vositasining marshrut yo‘nalishi bo‘yicha borib qaytishi – 10 marotaba;

bir kunda bitta transport vositasi yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 300 nafar yo‘lovchi;

bir kunda yo‘nalishdagi barcha (10 ta) transport vositalar tomonidan o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 3000 nafar yo‘lovchi.

4. “Ravnaqtrans lyuks” M.Ch.J. korxonasi faoliyati o‘rganilganda quyidagilar aniqlandi:

Korxonaga tegishli bo‘lgan transport vositalari rusumi va soni:

- umumiy 9 ta transport vositasi 2 ta “Istana” rusumli va 7 ta “Gazel” rusumli mikro avtobus mavjud bo‘lib, 2008-2015 yillar oralig‘ida ishlab chiqarilgan va barcha transport vositalari texnik soz holatda;

Harakat yo‘nalishi:

589 - sonli yo‘nalish: Sarke m.f.y. Nodirobod ko‘chasi – Yunusobod Universam:

yo‘nalishda harakatlanadigan transport vositalari soni - 9 ta (2 ta “Istana” va 7 ta “Gazel”);

yo‘lovchi sig‘imi – “Istana” 15 nafar va “Gazel” 15 nafar;

transport vositalari harakatlanish oralig‘i – 10-15 daqiqa;

bir kunda bitta transport vositasining marshrut yo‘nalishi bo‘yicha borib qaytishi – 6 marotaba;

bir kunda bitta transport vositasi yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 180 nafar yo‘lovchi;

bir kunda yo‘nalishdagi barcha (9 ta) transport vositalar tomonidan o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 1620 nafar yo‘lovchi.

5. “Pasttrans” M.Ch.J. korxonasi faoliyati o‘rganilganda quyidagilar aniqlandi:

Korxonaga tegishli bo‘lgan transport vositalari rusumi va soni:

- 8 ta “Isuzu” rusumli avtobus mavjud bo‘lib, 2014-2024 yillar oralig‘ida ishlab chiqarilgan va barcha transport vositalari texnik soz holatda;

Harakat yo‘nalishi:

477 - sonli yo‘nalish: Kultepa m.f.y. – Yunusobod Universam:

yo‘nalishda harakatlanadigan transport vositalari soni - 8 ta;

yo‘lovchi sig‘imi – 37 nafar;

transport vositalari harakatlanish oralig‘i – 10-15 daqiqa;

bir kunda bitta transport vositasining marshrut yo‘nalishi bo‘yicha borib qaytishi – 7 marotaba;

bir kunda bitta transport vositasi yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 518 nafar yo‘lovchi;

bir kunda yo‘nalishdagi barcha (8 ta) transport vositalar tomonidan o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 4144 nafar yo‘lovchi.

6. “Bentli elektrobastrans” M.Ch.J. korxonasi faoliyati o‘rganilganda quyidagilar aniqlandi:

Korxonaga tegishli bo‘lgan transport vositalari rusumi va soni:

- 10 ta “Gazel” rusumli mikro avtobus mavjud bo‘lib, 2014-2022 yillar oralig‘ida ishlab chiqarilgan va barcha transport vositalari texnik soz holatda;

Harakat yo‘nalishi:

486 - sonli yo‘nalish: Keles – Shaxriston metro bekati:

yo‘nalishda harakatlanadigan transport vositalari soni - 10 ta;

yo‘lovchi sig‘imi – 15 nafar;

transport vositalari harakatlanish oralig‘i – 10-12 daqiqa;

bir kunda bitta transport vositasining marshrut yo‘nalishi bo‘yicha borib qaytishi – 4 marotaba;

bir kunda bitta transport vositasi yo‘nalish bo‘yicha o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 120 nafar yo‘lovchi;

bir kunda yo‘nalishdagi barcha (10 ta) transport vositalar tomonidan o‘rtacha yo‘lovchi tashish soni – 1200 nafar yo‘lovchi.

Yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanuvchi xususiy korxonalar xaydovchi va yo‘lovchilari bilan suhbatlashilganda quyidagi **muammolar aniqlandi:**

- yo‘nalishdalarda noqonuniy yo‘lovchi tashish bilan shug‘ullanuvchi damaslar, ro‘yxatdan o‘tgan yo‘lovchi tashuvchi transport vositalari harakatlanishiga to‘sqinlik qilishi (xalaqit qilishi);

- bekatlarda yengil avtotransport vositalarining to‘xtab turishi oqibatida yo‘nalishdagi transport vositalarining harakatiga to‘sqinlik qilishi. Buning natijasida yo‘nalishdagi transport vositalari chorrahadagi 1.1 yotiq yo‘l chizig‘ini bosib o‘tishga majbur bo‘lishmoqda. Natijada qoidabuzarlik sodir etilmoqda va korxonaga jarima qarorlari kelmoqda (*Ma’lumot uchun: Farobiy ko‘chasi Respublika Teri tanosil kasalliklari markazi oldidagi chorrahada yuqoridagi holat juda ko‘p sodir etilmoqda*);

- tirbandlik natijasida yo‘nalishdagi transport vositalarining jadval bo‘yicha harakatlanish vaqtlari o‘zgarib ketmoqda. Bunday holatlar yo‘lovchilarning noroziligiga sabab bo‘lmoqda;

- Diydor m.f.y. Shifobaxsh suvlar ko'chasida joylashgan “Abdulloh ibn Abbos” masjidi oldidagi svetofor tirbanlik xosil qilmoqda. Bu esa yo'nalishdagi transport vositalarining jadval bo'yicha harakatlanishiga to'sqinlik qilmoqda;

- tumanning jamoat transporti harakatlanayotgan yo'llarida 140 ta bekatdan 28 tasi talabga javob bermasligi, ba'zi yo'llarda umuman bekat yo'qligi, tuman avtomobil yo'llarida piyodalar uchun yo'lkalar (trotuarlar) tashkil etilmaganligi, avtobuslarning

20 minutgacha tirbandliklarda qolib ketishi, yo'lining istalgan qismida avtobusni to'xtatib, yo'lovchi olish holatlari;

- tuman ichki yo'llarining nosozligi, yo'l belgilari va chiziqlari bilan jihozlanmaganligi.

Taklif:

- tuman hududida noqonuniy yo'lovchi tashish faoliyatiga chek qo'yish va yo'lovchilar xavfsizligini ta'minlash;

- tumandagi jamoat transporti bekatlarini ta'mirlash, kelayotgan sovuq kunlarni inobatga olib yo'lovchilar uchun qo'lay sharoitlarga ega bekatlar qurish.

Xulosa

Mazkur tadqiqot doirasida Toshkent viloyati Toshkent tumani misolida hududlarda sodir bo'layotgan yo'l-transport hodisalarining holati ilmiy jihatdan tahlil qilindi hamda ularning asosiy kelib chiqish omillari o'rganildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yo'l-transport hodisalarining ko'payishiga haydovchilar tomonidan yo'l harakati qoidalariga rioya qilmaslik, transport oqimi zichligining ortishi, ayrim yo'l uchastkalarining infratuzilmaviy kamchiliklari, piyodalar harakatini tartibga solish mexanizmlarining yetarli emasligi va yo'l xavfsizligi madaniyatining past darajada ekanligi kabi omillar ta'sir ko'rsatmoqda.

Tadqiqot natijalari xavfli yo'l uchastkalarini aniqlash, harakat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha profilaktik choralarni kuchaytirish, yo'l infratuzilmasini takomillashtirish hamda intellektual transport tizimlarini keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, haydovchi va piyodalarning huquqiy va harakat madaniyatini oshirish bo'yicha tizimli targ'ibot ishlarini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, yo'l-transport hodisalarini kamaytirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Ilmiy tahlillar asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish hududlarda yo'l harakati xavfsizligini yaxshilash, inson hayoti va salomatligini muhofaza qilish hamda ijtimoiy-iqtisodiy yo'qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining «Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida»gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga oid qaror va farmoyishlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yo'l harakati xavfsizligi xizmati (YHXX)ning rasmiy statistik ma'lumotlari.

4. Abdullaev A.A. Yo‘l harakati xavfsizligini tashkil etish asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
5. Karimov Sh.X. Avtomobil yo‘llarida harakat xavfsizligi. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2020.
6. Saidov B.R., Yuldashev N.M. Yo‘l-transport hodisalarini tahlil qilish va prognozlash. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2019.
7. World Health Organization. Global Status Report on Road Safety. – Geneva, 2023.
8. European Commission. Road Safety and Accident Analysis Methodologies. – Brussels, 2022.
9. Safoev I.I. Transport infratuzilmasi va yo‘l harakati xavfsizligi muammolari // Ilmiy-amaliy jurnal, 2022, №4.
10. Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi YHXBning tahliliy hisobotlari (2023–2025 yillar).